



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



**KOMPYUTER ILMLARI VA
MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI**
XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI
1-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**
mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
1-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 355-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI ICHKI VA TASHQI OMILLAR

Ortiqov Yorqin Yunusovich

Iruskon MCHJ Moliya bo'limi boshlig'i

yurajonn@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ichki omillar sifatida xomashyo sifati, texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish uskunalarining holati, sanitariya-gigiyena talablari va sifat nazorati tizimining samaradorligi ko'rib chiqiladi. Tashqi omillar qatorida esa ekologik sharoit, davlat standartlari va normativ hujjatlar, bozor talablari, logistika va ta'minot zanjiri, iste'molchilar xulq-atvori hamda xalqaro sertifikatlash tizimlarining ta'siri yoritilgan. Mazkur tadqiqot oziq-ovqat sanoatida sifat menejmenti tizimlarini takomillashtirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat mahsulotlari sifati, ichki omillar, tashqi omillar, xomashyo sifati, texnologik jarayonlar, sifat nazorati tizimi, ekologik sharoit, davlat standartlari, bozor talablari, logistika va ta'minot zanjiri, iste'molchilar xulq-atvori, xalqaro sertifikatlash, sifat menejmenti, oziq-ovqat sanoati, raqobatbardoshlik, innovatsion texnologiyalar, barqaror ishlab chiqarish.

Jahon mamalakatlarining asosiy e'tibori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashga qaratilgan bo'lib, 1996 yilda Jahon Oziq-ovqat xavfsizligi sammiti[1] "...barcha odamlar o'z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy hohishlariga binoan hamda faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun etarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga moddiy va iqtisodiy jihatdan ega bo'la olishi" alohida belgilab berildi.

Deyarli barcha mamlakatlarda BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasidagi tashkiloti nizomida belgilangan maqsad va vazifalarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi va vazifalarini oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasidagi quyidagi tavsiyalari maqsad va vazifalarni belgilashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi:

- oziq-ovqat xavfsizligi o'zini-o'zi oziq-ovqat bilan to'liq-ta'minlashni ifodalamaydi;

- mamlakat nisbiy utunlikka ega bo'lgan holatda o'z ehtiyojlari uchun etarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini o'zi ishlab chiqarishga harakat qilishi lozim;

- mamlakat zarur miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini import qilishga va o'z fuqarolarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qodir bo'lishi lozim;

- mamlakat hukumati oziq-ovqat xavfsizligi doirasida fuqarolarning xavfsiz oziq-ovqatga miqdoriy va iqtisodiy jihatdan ega bo'lish (erishish) imkoniyatlarini ta'minlashi kerak[2].

O'zbekiston o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash barobarida, mevasabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlar oziq-ovqat ta'minotiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgani xalqaro hamjamiyat

tomonidan muntazam e'tirof etilmoqda. Jumladan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida "Ming yillik rivojlanish maqsadlari"ga erishgani uchun maxsus mukofotiga sazovor bo'lgan 14 davlat orasida O'zbekistonning ham borligi e'tiborga molik.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligi va barqarorligini, aholini va har bir fuqaroning oziq-ovqat mahsulotlariga fiziologik minimumga muvofiq miqdoriy va iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan erishishini kafolatlash hamda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsiz iste'molini ta'minlashdan iboratdir. Aholiga oziq-ovqat mahsulotlarini etkazib berish faqat uning miqdorigagina emas, balki uning sifatini ham hisobga olish zarur. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha insonning normal o'sishi va qayta tiklanishi uchun ma'lum miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida oqsil, yog', uglevod va har xil vitamin hamda mineral tuzlar bo'lishi kerak.

Mutaxassislarning fikricha, bu narsalarning ba'zilar "yoqilg'i" bo'lib, sarflangan energiyani qoplasa, ayrimlari "qurilish material" bo'lib, odam tanasida to'qimalar hosil qiladi, qolganlari esa odam organizmida modda almashinuvini ta'minlaydi. Insonga zarur bo'lgan u yoki bu moddalarning miqdori jismoniy yoki aqliy mehnatga, yoshiga, tabiiy sharoitga va inson organizmining individual xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Aytish lozimki, iste'molning ratsional normasini belgilash muhim ahamiyat kasb etib, ehtiyojning ratsional hajmini aniqlashda kishining fiziologik va ma'naviy talabi hisobga olinadi. Ilmiy jihatdan asoslangan ehtiyojning ratsional normasini belgilab olishda ehtiyojlarning o'zgarib borish tendensiyasini bilish zarur. Bizning nazarimizda, ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- aholining faol va sog'lom hayot tarzini ta'minlash uchun belgilangan iste'molning ratsional me'yorlariga muvofiq hajmda va assortimentda xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy (miqdoriy), iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan erishishlariga shart-sharoitlar yaratish va qo'llab-quvvatlash.

- oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash uchun asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini milliy sharoitda barqaror ishlab chiqarishni ta'minlash asosida milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;

- oziq-ovqat mahsulotlarining importiga qaramlikning oldini olish va ularning oqilona importini tashkil etish;

- oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsiz iste'molini hamda sifatini ta'minlash, iste'molchilarning xavfsiz va sifatli mahsulotlar iste'mol huquqlarini ishonchli himoya qilish;

- mamlakat oziq-ovqat xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlarning oldini olish, ularning salbiy oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish, ko'riladigan yo'qotish va zararlarni minimallashtirish. Buning uchun tabiiy ofatlar va boshqa favqulotda holatlar yuz berganida fuqarolarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tizimini vujudga keltirish, strategik zahira va rezervlarni yaratish.

Bu borada mamlakat oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar va tashqi tahdidlar mamlakat tashqarisida, shu jumladan xalqaro global miqyoslarda hamda qo'shni va hamkor mamlakatlarda yuzaga keladigan va unga xavf

tugʻdiradigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, omillar hamda voqeliklarda namoyon boʻladi. Ularning asosiy lari quyidagilarda ifodalanadi:

- jahon iqtisodiyotida inqirozli tendensiyalarning kuchayishi, global iqtisodiy, moliyaviy, agrar inqirozlarning yuz berishi, xalqaro oziq-ovqat bozorlarining qisqarishi va ularda narx-navoning oshib borishi;

- dunyo aholisi sonining oʻsib borishi va urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida jahon qishloq xoʻjaligi ekin maydonlarining kamayib borishi;

- aholi soni va uning ehtiyojlarining oʻrtacha yillik oʻsishi surʼatlariga nisbatan asosiy oziq-ovqat turlari, shu jumladan, bugʻdoy, sholi, guruch ishlab chiqarishning yillik oʻsish surʼatlarining pasayishi va orqada qolishi, ularning jami hajmlari va zahiralarining kamayishi;

- chorvachilik mahsulotlariga boʻlgan ehtiyoj va isteʼmolining ortib borishi sharoitida yaylovlarning kamayishi natijasida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish surʼatlarining pasayishi;

- ekologiyaning yomonlashuvi, iqlim oʻzgarishlarining oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga salbiy taʼsirining kuchayishi;

- dunyo bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va yuqori foyda olish maqsadida yirik eksportyor mamlakatlardagi transmilliy korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarish jarayonlarida turli antibiotik, gormonlar va shu kabi inson salomatligi uchun zararli komponent va qoʻshimchalarni keng miqyosda qoʻllash natijasida sifatsiz va xavfli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarining oʻsib borishi. Mamlakat hududiga noqonuniy tarzda oziq-ovqat mahsulotlari kiritilishi, oziq-ovqat kontrabandasining kuchayishi;

- ayrim mamlakatlarda qurgʻoqchilikning yuz berishi, dunyo miqyosida chuchuk suv resurslarining kamayib borishi va ulardan samarasiz foydalanish, sel va suv toshqinlari;

- rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oʻrtasidagi farqlarning kuchayib borishi, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning oziq-ovqat importiga bogʻliqligining oʻsishi, aholisi toʻyib ovqatlanmayotgan va ochlik hukm surayotgan mintaqalarning koʻpayib borishi. SHu boisdan, rivojlanayotgan mamlakatlar ichida oziq-ovqat mahsulotlarini importiga qaramlar soni koʻpayib bormoqda.

Taʼkidlash lozimki, dunyoning ayrim hududlarida oʻzaro va fuqarolik urushlari, terroristik harakatlarning hamda siyosiy keskinlikning kuchayishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining keskin kamayib ketishi, qochoq va migrantlarning koʻpayishi, ularning mamlakat hududiga norasmiy kirib kelishi natijasida xalqaro va mamlakat ichki oziq-ovqat bozorlarida narx navolarning oshib ketishi oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashni qiyinlashtiradigan muammoli vaziyatlarni vujudga kelishiga sabab boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasida “Oziq-ovqat xavfsizligi toʻgʻrisida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilandi. SHundan kelib chiqqan holda mazkur qonun ishlab chiqildi. Qonun 5 bob va 25 moddadan iborat boʻlib, unda oziq-ovqat xavfsizligi boʻyicha umumiy qoidalar, ushbu sohani tartibga solish hamda davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, isteʼmolchilarning, xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi huquq va majburiyatlari aks etgan.

Qonunning maqsadi – oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning qo‘llanish sohasi aholining oziqlik qimmatiga ega bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan xavfsiz ovqatlanishini ta‘minlashga, samarali bozor mexanizmlarini shakllantirish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosini ishlab chiqarishga nisbatan tatbiq etiladi.

SHuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi asosiy tamoyillar, ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan. Eng asosiysi, oziq-ovqat xavfsizligi sohasini tartibga solish mustahkamlanib, bunda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda Vazirlar Mahkamasi, vakolatli davlat organi, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlariga aniqlik kiritildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha davlat tomonidan oziq-ovqat balansini shakllantirib boradi. Bu oziq-ovqat tanqisligining oldini olishga xizmat qiladi.

Mazkur qonunda “...oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, davlat oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilishning minimal normalariga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosining aylanma zaxirasini shakllantirish, aholini ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan etarli miqdorda va uzluksiz ta‘minlash imkoniyatlarini kengaytirish, oziq-ovqat mahsulotlarining qonunchilik hujjatlarida belgilangan sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga muvofiq ishlab chiqarilishini rag‘batlantirish”[3] vazifalari belgilab berildi.

Mazkur hujjatda belgilanganidek, davlat :

oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilishning minimal normalariga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosining aylanma zaxirasini shakllantiradi;

aholini ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan etarli miqdorda va uzluksiz ta‘minlash imkoniyatlarini kengaytiradi;

oziq-ovqat mahsulotlarining qonunchilik hujjatlarida belgilangan sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga muvofiq ishlab chiqarilishini rag‘batlantiradi;

tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish, shuningdek ,ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti va importi o‘rtasidagi maqbul muvozanatni saqlaydi;

oziq-ovqat xavfsizligi va aholining xavfsiz ovqatlanishi sohasidagi faoliyatning samaradorligini ta‘minlaydi;

oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosi bozorining ehtiyojlarini doimiy monitoring qiladi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta‘minlab turilishi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir inson yoki oila o‘zining ehtiyojiga qarab sotib oladi. Iqtisodiy riqojlanish sharoitida oziq-ovqat mahsulotlari kam elastiklikka ega bo‘ladi, aholi daromadlari oshishi va narx o‘zgarishi ta‘siri insonlar iste‘moliga ham ta‘sir etadi. Buni tushuntirishda asosan quyidagi sabablarni ko‘rsatish mumkin: inson hayoti uchun oziq-ovqat mahsulotlari zarur bo‘ladi va ta‘minlashga intiladi, oziq-ovqatlar iste‘molining fiziologik cho‘qqisini aniqlash lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. FAO. World Food Summit: Rome Declaration on World Food Security and World Food Summit Plan of Action. Rome, 13–17 November 1996. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 1996.
2. Шагайда Н.И., Узун В.Я. Продовольственная безопасность в России: мониторинг, тенденции и угрозы. – М.: РАНХ и ГС при Президенте РФ, 2014. – С.8.
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2025 yil 3 fevraldagi "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni. Lex.uz.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISHDA MUHIM OMILLARNI BAHOLASH

i.f.f.d., (PhD) dots. Saloxitdinov Sherzod Farxodovich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

sherzod.saloxitdinov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur ishda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda muhim omillarni baholash masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy determinantlar – pedagogik kadrlar salohiyati, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, moddiy-texnik baza va infratuzilma, raqamli texnologiyalarni joriy etish, talabalar ehtiyojlari va mehnat bozori talablari bilan uyg'unlik, boshqaruv va monitoring mexanizmlarining samaradorligi hamda xalqaro akkreditatsiya va reyting tizimlarining ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba va milliy rivojlanish strategiyalaridan foydalanib, ta'lim xizmatlari sifatini baholashning amaliy usullari, indikatorlari va mezonlari ishlab chiqilgan. Natijalar oliy ta'lim tizimida sifatni oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim xizmatlari sifati, sifatni baholash omillari, pedagogik salohiyat, raqamli texnologiyalar, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, moddiy-texnik baza, talabalar ehtiyojlari, mehnat bozori talablari, boshqaruv mexanizmlari, monitoring tizimi, xalqaro akkreditatsiya.

Jahonda ta'lim xizmatlarining qamrov ko'lami hamda sifat jihatidan o'zgarishi «inson omili»dan foydalanishda yangi bosqichga o'tishni namoyon etib, bu ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi ta'lim xizmatlarining individuallashuvi, tor sohalar bo'yicha ixtisoslashuvi hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatining buyurtmachilar talabi asosida ortib borishi mazkur o'zgarishlar bilan bog'liq holda yuz bermoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "2020 yilda jahon yalpi ichki mahsulotining 19 foiziga teng miqdordagi mablag' ta'limning barcha bosqichlarini moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan"[1].